

ELLS-NING OTA-ONALARGA MO'LJALLANGAN VIDEOSI MATNI
(Dasturlarga oid video)

NYU-YORK SHTATINING TA'LIM VAZIRLIGI
IKKI TILLI TA'LIM VA JAHON TILLARI XIZMATI HAMDA
NYU-YORK SHTATINING VASIYLAR KENGASHI

TAQDIM ETADI:

NYU-YORK SHTATIDAGI INGLIZ TILINI O'RGANUVCHILAR UCHUN DASTURLAR

NYU-YORK SHTATINING DAVLAT MAKTABLARIGA XUSH KELIBSIZ. MAKTABLARIMIZDA INGLIZ TILINI O'RGANUVCHILAR (ELLS) VA/YOKI KO'P TIL O'RGANUVCHILAR DEB ATALUVCHI 2,6 MILLION NAFAR O'QUVCHI VA 214 MINGDAN OSHIQ TIL O'RGANUVCHI BOR. MAKTAB TIZIMIMIZDAGI OILALAR 200 DAN OSHIQ TILDA SO'ZLASHADI.

RANG-BARANG TIL VAKILLARIDAN IBORAT JAMOAT EHTIYOJLARINI QONDIRISH UCHUN NYU-YORK SHTATIDA IKKI TILLI TA'LIM VA JAHON TILLARI XIZMATI MAVJUD.

XIZMATNING VAZIFASI INGLIZ TILINI O'RGANUVCHILARNING O'QISHDAGI YUTUQLARI VA TIL BILISH MALAKASINI ENG YUKSAK DARAJAGA KO'TARISH HAMDA SHTATDA O'RNATILGAN STANDARTLARGA MOS KELISHINI TA'MINLAB BERISHDAN IBORAT. BIZ BARCHA O'QUVCHILAR OLIY O'QUV YURTLARIGA KIRISHI VA ISHNING BOSHINI TUTISHI UCHUN TAYYORGARLIK KO'RISH BILAN BOG'LIQ BIR NECHA TIL O'RGANISH BO'YICHA INDIVIDUAL TA'LIM OLIH VA IJTIMOY-HISSIY EHTIYOJLARI QONDIRILISHIGA ISHONCH HOSIL QILISHGA INTILAMIZ.

BIZ BARCHA O'QUVCHILAR ULARNI O'RTA MAKTABNI BITIRISH VA OLIY O'QUV YURTIGA O'QISHGA VA/YOKI ISHGA KIRISHGA TAYYORLOVCHI TA'LIMNI OLIH KERAK DEB HISOBLAYMIZ.

KERAKLI NARSALARDAN XABARDOR OTA-ONALAR FARZANDLARINING ENG YAXSHI HIMOYACHISIDIR. MAKTABLARIMIZ FARZANDINGIZGA NIMA TAKLIF QILISHI MUMKINLIGINI SO'RAB-SURISHTIRAYOTGANINGIZDA IKKI TILLI TA'LIM VA JAHON TILLARI XIZMATI SIZGA ISTALGAN KO'MAKNI BERISHGA TAYYOR.

FARZANDINGIZ INGLIZ TILINI QANDAY BILISHNI BAHOLASH IMTIHONIDAN O'TDI VA INGLIZ TILI O'RGANUVCHISI SIFATIDA QABUL QILINDI: ASOSIY YOKI ONA TILI INGLIZ TILIDAN BOSHQA TIL BO'LGAN O'QUVCHI MAKTABDA U MUVAFFAQIYATLI BO'LISHI

UCHUN KERAK BO'LGAN INGLIZ TILINI YAXSHI O'RGANISHI UCHUN QO'SHIMCHA YORDAM OLIH HUQUQIGA EGA BO'LADI.

NYU-YORK SHTATIDAGI MAKTABLAR SIZNI FARZANDINGIZ MAKTABI VA/YOKI OKRUGIDA MAVJUD TURLI DASTURLARDAN XABARDOR QILISH MAQSADIDA INGLIZ TILINI O'RGANISH UCHUN YANGI QABUL QILINGAN O'QUVCHILAR OILALARI UCHUN TADBIR O'TKAZISHI SHART. NATIJADA USHBU TADBIRDA SIZ ASOSIY YOKI ONA TILINGIZDA DASTUR HAQIDA MA'LUMOT VA MATERIALLAR OLASIZ. SHUNINGDEK, SAVOL SO'RASH VA ULARGA JAVOB OLIH IMKONIYATIGA EGA BO'LASIZ. USHBU XABARDOR QILISH TADBIRLARI FARZANDINGIZ O'RGANISH HUQUQINI QO'LGA KIRITGAN DASTURNI YAXSHIROQ TUSHUNIB OLIHINGIZGA KO'MAKLASHADI.

FARZANDINGIZ INGLIZ TILINI O'RGANUVCHI SIFATIDA UNING O'QISHIGA, SHUNINGDEK, INGLIZ TILI HAMDA ASOSIY YOKI ONA TILINI O'RGANISHIGA KO'MAKLASHUVCHI MUAYYAN DARSLAR O'TISH XIZMATLARIDAN FOYDALANISH HUQUQIGA EGA.

HAR YILI BAHOR MAVSUMIDA FARZANDINGIZNING INGLIZ TILINI QAY DARAJADA BILISHI BAHOLANADI. USHBU BAHOLASH FARZANDINGIZ INGLIZ TILIDA GAPIRISH, TINGLASH, O'QISH VA YOZISH BO'YICHA QANCHALIK O'ZLASHTIRISHGA ERISHGANINI O'LCHAYDI. BUNDAN TASHQARI, BAHOLASH HALI HAM INGLIZ TILINI O'RGANUVCHI BO'LIB QOLAYOTGANI YOKI QOLMAYOTGANINI ANIQLAYDI, MABODO SHUNDAY BO'LSA, FARZANDINGIZ QO'SHIMCHA KO'MAK OLIHNI DAVOM ETTIRADI. USHBU MA'LUMOTNI FARZANDINGIZ O'QITUVCHISIDAN SO'RAB BILISHINGIZ MUMKIN.

KELING, FARZANDINGIZGA NYU-YORK SHTATIDA INGLIZ TILINI O'RGATADIGAN VA UNING IKKI TILLI BO'LIHIGA KO'MAKLASHADIGAN DASTURLARNI KO'RIB CHIQAYLIK.

UMUMAN OLGANDA, FOYDALANISH MUMKIN BO'LGAN IKKITA DASTUR BOR. HAR BIR DASTUR FARZANDINGIZGA MAKTABDA YAXSHI O'QISH, O'RTA MAKTABNI TUGATISH VA KELGUSI IMKONIYATLAR ESHIGINI OCHISHDA YORDAM BERADI.

IKKITA DASTUR:

IKKI TILLI TA'LIM

INGLIZ TILI YANGI TIL SIFATIDA (ENL)

IKKI TILLI TA'LIMNING MAKTABINGIZ SIZGA TAKLIF QILISHI MUMKIN BO'LGAN IKKITA TURI BOR. BITTASI O'TISHGA MO'LJALLANGAN IKKI TILLI TA'LIM DASTURI, BOSHQASI ESA BIR TOMONLAMA YOKI IKKI TOMONLAMA IKKI TILLI DASTUR DEB ATALADI.

ENDI O'TISHGA MO'LJALLANGAN IKKI TILLI TA'LIM DASTURINING XUSUSIYATLARINI KO'RIB CHIQAMIZ

O'TISHGA MO'LJALLANGAN IKKI TILLI TA'LIM DASTURLARI AYNI ASOSIY YOKI ONA TILIDA SO'ZLASHUVCHI O'QUVCHILARGA INGLIZ TILIDA GAPIRISH, UNI TUSHUNISH, O'QISH VA YOZISH IMKONIYATINI TAKLIF QILADI, SHU BILAN BIRGA ULAR TABIIY VA MATEMATIKA SINGARI FANLARNI ASOSIY YOKI ONA TILIDA O'RGANISHNI DAVOM ETTIRADI.

O'QUVCHI INGLIZ TILINI O'RGANAYOTGANDA UNING ASOSIY YOKI ONA TILIDAN BARCHA FANLARNI O'RGANISHDA FOYDALANILADI.

DASTLAB DARSLARNING KAMIDA 60 FOIZI O'QUVCHINING ASOSIY YOKI ONA TILIDA, 40 FOIZI ESA INGLIZ TILIDA O'TILADI.

VAQT O'TISHI BILAN O'QUVCHI INGLIZ TILINI BILISH BO'YICHA MAJBURIY MALAKAGA EGA VA INGLIZ TILIDAGI BIR TILLI O'QUVGA O'TISHGA TAYYOR BO'LMAGUNCHA INGLIZ TILIDAGI O'QISH MIQDORI ASTA-SEKIN OSHIRIB BORILAVERADI.

O'TISHGA MO'LJALLANGAN IKKI TILLI TA'LIM DASTURINING PIROVARD MAQSADI O'QUVCHILARNI INGLIZCHADAGI BIR TILLI O'QUV MASHG'ULOTLARIGA O'TKAZISHDIR.

GARCHI VAQT O'TISHI BILAN FARZANDINGIZGA INGLIZ TILDA O'TILAYOTGAN DARSLAR MIQDORI OSHIB BORSA-DA, UNING IKKI TILDA SO'ZLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH IMKONINI BERADIGAN ASOSIY YOKI ONA TILDA HAM DARSLAR O'TILADI.

AGAR FARZANDINGIZNING O'TISHGA MO'LJALLANGAN IKKI TILLI TA'LIM DASTURIDA QATNASHUVINI DAVOM ETTIRISHINI ISTASANGIZ, USHBU QARORINGIZ HAQIDA MAKTABGA XABAR BERISHINGIZ KERAK BO'LADI.

ENDI ESA BIR TOMONLAMA YOKI IKKI TOMONLAMA IKKI TILLI DASTURLARNI KO'RIB CHIQAMIZ

IKKI TILLI DASTURLAR O'QUVCHILARGA MAKTABDA BILIM Olish BILAN BIRGA IKKI TILLI, IKKI TILDA HAM O'QIYDIGAN, HAM YOZADIGAN, IKKI MADANIYAT VAKILI BO'LISHNI TAKLIF QILADI.

BIR TOMONLAMA IKKI TILLI DASTURDA BITTA ASOSIY YOKI ONA TILIDA SO'ZLASHUVCHI YOKI O'SHA TILDA SO'ZLASHGAN O'QUVCHILAR IKKI TILLI YOKI KO'PTILLI BO'LISH IMKONIGA EGA BO'LADI. O'QITUVCHI YOKI O'QITUVCHILAR BIR VAQTDAM HAM INGLIZ, HAM ASOSIY YOKI ONA TILIDA DARS BERADI.

IKKI TOMONLAMA IKKI TILLI DASTUR HAM ONA TILI INGLIZ TILI BO'LGAN, HAM INGLIZ TILINI O'RGANUVCHILARNI QAMRAB OLADI. O'QITUVCHI YOKI O'QITUVCHILAR IKKI TILDA DARS BERADI, BU ESA ONA TILI TURLICHA BO'LGAN O'QUVCHILARGA IKKI TILLI YOKI KO'PTILLI VA KO'PMADANIYATLI BO'LISH IMKONINI BERADI.

IKKI TILLI DASTURLARNING AKSARIYATIDA O'QUVCHILARGA DARSLARNING YARMI ASOSIY YOKI ONA TILIDA O'TILADI, DARSLARNING QOLGAN QISMI ESA MO'LJAL TIL, YA'NI O'RGANILAYOTGAN TILDA O'TILADI. BIROQ VAQT BILAN BOG'LIQ BOSHQA STANDARTLAR HAM BOR. MASALAN, "90 FOIZGA 10 FOIZ" MODELIDA DARSLARNING AKSARIYATI INGLIZ TILIDAN BOSHQA MO'LJAL TILDA O'TILADI VA VAQT O'TISHI BILAN "50 FOIZGA – 50 FOIZ" QADAR QISQARIB BORADI.

O'QUVCHILAR IKKI TILDA GAPIRISH, O'QISH VA YOZISHNI O'RGANADI, O'ZINI QADRLASH VA TURLI TIL KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH BILAN BIRGA BOSHQA MADANIYATLAR HAQIDA HAM MA'LUMOTGA EGA BO'LADI.

TADQIQOTDAN MA'LUM BO'LISHICHA IKKI TILLI DASTUR ASOSIDA O'QIYAOTGAN O'QUVCHILARNING INGLIZ VA BOSHQA TILLARDAN OLGAN BAHOLARI O'RTACHA DARAJA YOKI UNDAN YUQORI BO'LADI.

FARZANDINGIZNING TIL BILISHI SHATATNING HAR YILI BAHOR MAVSUMIDA O'TKAZILADIGAN TILNI BILISHNI BAHOLASH DARAJASIGA* YETGAN BO'LSA HAM U O'QISHINI IKKI TILLI DASTURDA DAVOM ETTIRAVERADI.

ENDI IKKI TILLI DASTURLARNI MUHOKAMA QILIB BO'LGANIMIZDAN SO'NG, FARZANDINGIZ O'RGANISHI MUMKIN BO'LGAN "INGLIZ TILI YANGI TIL SIFATIDA" (ENL) DASTURI HAQIDA SUHBATLASHSAK.

FARZANDINGIZ "INGLIZ TILI YANGI TIL SIFATIDA" (ENL) DASTURIDA TURLI TILLAR VAKILLARI BILAN BIRGA BO'LADI. U QUYIDAGILARNI O'RGANADI:

- INGLIZCHA GAPIRISH, UNI TUSHUNISH, O'QISH VA YOZISHNI;

- “INGLIZ TILI YANGI TIL SIFATIDA” (ENL) DASTURI NAZARIYASI VA STRATEGIYASI BO‘YICHA MAXSUS O‘QITILGAN O‘QITUVCHI YORDAMI BILAN INGLIZ TILIDA (TABIIY FANLAR, MATEMATIKA, IJTIMOY FANLAR, TILSHUNOSLIK FANLARI SINGARI) FANLARNI HAMDA INGLIZ TILINI O‘RGANISHIGA KO‘MAKLARDAN FOYDALANISHNI;
- INGLIZ TILINI O‘RGANISH VOSITASI SIFATIDA ASOSIY YOKI ONA TILIDAN FOYDALANISHNI.

USHBU DASRTURDA FARZANDINGIZ SHTATNING TILNI BILISHNI BAHOLASH TALABLARIGA KO‘RA, TILNI MUKAMMAL* EGALLAGACH, “INGLIZ TILI YANGI TIL SIFATIDA” (ENL) DASTURINI TUGALLAYDI VA O‘QISHNI FAQAT INGLIZ TILIDA DAVOM ETTIRADI.

SHUNI ALOHIDA QAYD ETISH LOZIMKI, BARCHA DASTURLAR, JUMLADAN, IKKI TILLI DASTURLAR HAM “INGLIZ TILI YANGI TIL SIFATIDA” (ENL) DASTURINI TAKLIF QILADI.

FARZANDINGIZ TILNI MUKAMMAL EGALLAGACH*, YANA IKKI YIL O‘QISH UCHUN QO‘SHIMCHA KO‘MAK OLISH HUQUQIGA EGA BO‘LADI.

*NYSESLAT (Nyu-York shtatining “Ingliz tilidan ikkinchi til sifatida erishilgan yutuqni baholash” testi) bo‘yicha “Juda yuqori” darajasi

BARCHA DASTURLAR (IKKI TILLI YOKI “INGLIZ TILI YANGI TIL SIFATIDA” (ENL) DASTURI BO‘LISHIDAN QAT‘IY NAZAR) FARZANDINGIZGA INGLIZ TILINI O‘RGATADI, O‘QISH YOKI KO‘MAK OLISH UCHUN ASOSIY YOKI ONA TILIDAN FOYDALANADI.

AGAR SIZ ISTAGAN DASTUR FARZANDINGIZ MAKTABIDA BO‘LMASA, OKRUGDAGI MUAYYAN DASTURDAN FOYDALANILADIGAN MAKTABGA UNI O‘TKAZISHNI ILTIMOS QILISHINGIZ MUMKIN. AGAR DASTUR OKRUGINGIZDA HAM MAVJUD BO‘LMASA HAMDA SINFINI SHAKLLANTIRISH UCHUN AYNI ASOSIY YOKI ONA TILIDA SO‘ZLASHUVCHI O‘QUVCHILAR YETARLI BO‘LSA, OKRUG O‘SHA DASTUR ASOSIDA O‘QITISHNI YO‘LGA QO‘YISH UCHUN HAMJAMIYAT BILAN HAMKORLIK QILISHI SHART. BARCHA MAKTABLAR “INGLIZ TILI YANGI TIL SIFATIDA” (ENL) DASTURINI O‘QITISHGA MAJBUR.

TADQIQOTLAR BITTA DASTURNI TANLAGANINGIZDAN SO‘NG ZARURAT TUG‘ILMAGUNCHA UNI O‘ZGARTIRMASLIGINGIZ KERAKLIGINI KO‘RSATMOQDA. O‘QUVCHI BIR DASTURDAN BOSHQASIGA KO‘CHIB YURMAY O‘QISA, UZLUKSIZ O‘QISH MAKTABDA YAXSHI NATIJA BERISHI MUMKIN.

KO'PLAB MAKTABLARDA QO'SHIMCHA KO'MAK DASTURLARI MAVJUD. FARZANDINGIZ O'QIYOTGAN MAKTAB XODIMLARI BILAN, UNGA KERAK BO'LSA, MAKTABDAN OLDINGI VA KEYINGI, INGLIZ TILINI O'RGANUVCHILAR UCHUN YOZGI MAKTAB DASTURLARI, SHUNINGDEK, ALOHIDA YORDAM BERISH HAQIDA MA'LUMOT OLISH UCHUN GAPLASHIB KO'RING.

MAKTAB VA OKRUGLARDAN OTA-ONALARGA MAKTAB VA OKRUG XODIMLARI BILAN TO'LAQONLI MULOQOT QILISHI UCHUN TIL BILAN BOG'LIQ YORDAM BERISH TALAB ETILADI. ZARUR HOLLARDA TARJIMA YOKI OG'ZAKI TARJIMA MASALASIDA YORDAM SO'RANG.

FARZANDINGIZNING ENG YAXSHI HIMOYACHISI EKANINGIZ ESINGIZDAN CHIMASIN! HUQUQLARINGIZNI TANIB OLING, SAVOLLAR SO'RANG, MA'LUMOT OLING VA XABARDORLIK ASOSIDA QARORLAR QABUL QILISH UCHUN MANBALARDAN FOYDALANING.

FARZANDINGIZNING UNI O'RTA MAKTABNI BITIRISH VA OLIY O'QUV YURTIGA O'QISHGA KIRISH YOKI ISHGA JOYLASHISHGA TAYYORLAYDIGAN TA'LIM OLISH HUQUQI BOR.

NYU-YORK SHTATINING TA'LIM VAZIRLIGI SIZGA FARZANDINGIZNING O'QISH BILAN BOG'LIQ KELAJAGI BORASIDA MUHIM QARORLAR QABUL QILISHINGIZDA MUVAFFAQIYAT TILAYDI!